

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DONNI
QAYTA ISHLASH JIHOZLARI VA SANOAT ELEVATORI FANIDAN
MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DONNI QAYTA ISHLASH JIHOZLARI VA SANOAT ELEVATORI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Donni qayta ishlash jihozlari va Sanoat elevatori fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Donni qayta ishlash va sanoat elevatori

1. Elevatorlarning ishlash prinsipi va mexanizmi;
2. Elevatorlarning don saqlash va ishchi bino ustidan texnik-kimyoviy nazorat;
3. Donni qayta ishlashda qo‘llaniladigan mashinalarning tuzilmasi va turkumlanishi;
4. Asosiy tur dondan eni, yo‘g‘onligi, aerodinamik va boshqa xususiyatlari bilan farq qiluvchi aralashmalarni ajratadigan mashinalar;
5. Donga yuzasiga quruq, donga suv bilan va gidrotermik ishlov berish, hamda donni maydalash, saralash, boyitish, shuningdek endospermning qolgan qismlarini qobiqdan ajratish va uni saralash masinalari, dozator va qadoqlash uskunalari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

| T/r | Mazmun sohalar | Konstruktlar | Testlar soni |
|-----|---|--|--------------|
| 1 | Elevatorlarning ishlash prinsipi va mexanizmi | Don omborxonalarining tarixi, tasnifi va ularga qo'yiladigan talablar, qurilish maydoni, tayorlov korxonasining bosh rejasi, donga yig'im – terimdan keyingi ishlov berish, don omborxonalari va mexanizatsiyalashtirilgan ishchi minoralar, elevatorlar, elevator ishini operativ hisoblash, zamonaviy elevatorlarning texnologik xususiyatlari, donni qayta ishlash mahsulotlarini saqlash omborxonalari, elevatorlar va donni qabul qilish korxonalaridan foydalanish kabi qismlari to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish. | 4 ta |
| 2 | Elevatorlarning don saqlash va ishchi bino ustidan texnik-kimyoviy nazorat | Donni saqlovchi korxonalar va ularga qo'yiladigan talablar, donga yig'im – terimdan keyingi ishlov berish, zamonaviy elevatorlarning texnologik xususiyatlari, elevatorlar va donni qabul qilish korxonalaridan foydalanish haqidagi ma'lumotlarni bilish, farqlash hamda muammoli vaziyatlarda tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish, elevatorlarda texnik kimyoviy nazoratni tashkil qilish asoslarin tahlil qilish. | 24 ta |
| 3 | Donni qayta ishlashda qo'llaniladigan mashinalarning tuzilmasi va turkumlanishi | Donni qayta ishlash mashinalarining tuzilmasi va alohida qismlarining funksional vazifalarini bilish zarur. Zamonaviy jixozlarning ta'minlovchi moslama, ishchi organli ijro etuvchi mexanizmlar, harakatlantiruvchi (dvigatelli) mexanizm, shuningdek boshqarish, sozlash va himoya | 3 ta |

| | | | |
|---|---|---|------|
| | | kurilmalaridan tahlil qilish ko'nikmalarga ega bo'ladi. | |
| 4 | Asosiy tur dondan eni, yo'g'onligi, aerodinamik va boshqa xususiyatlari bilan farq qiluvchi aralashmalarni ajratadigan mashinalar | Donni ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishning zamonaviy shakllari va asosiy bosqichlari xaqida nazariy va amaliy bilim oladilar. Asosiy tur dondan geometrik, aerodinamik fizik va kimyoviy xossalari bilan farq qiluvchi aralashmalarni ajratadigan mashinalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi, bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. | 7 ta |
| 5 | Donga yuzasiga quruq, donga suv bilan va gidrotermik ishlov berish, hamda donni maydalash, saralash, boyitish, shuningdek endospermning qolgan qismlarini qobiqdan ajratish va uni saralash masinalari, dozator va qadoqlash uskunalari | Donga ishlov berishda suvdan samarali foydalanish, valli dastgohlarda maydalash mashinalarni qo'llash, elakdonlarda mahsulotni saralash, yorma boyitgichlarda kechadigan ish jarayoni, zarbli sidirish mashinalari, donga zarb bilan ta'sir qiluvchi qobiq ajratish mashinalari va VMA bilan boyitish, qadoqlashni joriy etish ko'nikmalarga ega bo'ladi. | 2 ta |

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

| T/r | Kognitiv daraja | Izohi | Ulushi (%) |
|-----|------------------------|---|------------|
| 1. | Bilish | Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish | 20 % |
| 2. | Qo'llash | O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish | 60 % |
| 3. | Mulohaza qilish | Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish | 20 % |

VI. Test turlari va taqsimoti

| T/r | Test turi | Izohi |
|-----|-----------|---|
| 1. | Y1 | To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test |
| 2. | Y2 | Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test |
| 3. | Y3 | Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test |
| 4. | Y4 | Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test |

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. G'afforov A.X., Adizov R.T.. Don omborlari va elevatorlar. 265 bet. Darslik. Buxoro-2006 y

2. Haitov R.O., Radjabova V.E., Zuparov R.R.. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarini jihozlari. 421 bet. Darslik. Buxoro 2005 y.

3. Vazirlar maxkamasining 2006 yil 25 maydagi 95 sonli qaror.

4. Don omborlari, elevatorlar va texnik kimyoviy nazorat. Uslubiy ko'rsatma 28 bet. Buxoro 2008.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.